

INTERYER DIZAYNDA RASSOMCHILIKNING O'RNI VA MASLAHATLAR

Xodjayeva Shohsanam Shuhrat qizi

TAQU (Toshkent arxitektura va qurilish universiteti)

“Dizayn: interyer dizayni” yo’nalishi 5/25 guruh talabasi.

e-mail: xudjayevashoxsanam@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada interyer dizaynida rassomchilikning ahamiyati, kompozitsiyaning rang uyg'unligi, yorug'lik-soya, proporsiya va badiiy tafakkurning dizayn jarayoniga ta'siri yoritiladi. Rassomchilik dizaynerga fazoviy fikrlashni rivojlantirish, visual obraz yaratish, interyerni badiiy jihatdan boyitish va professional loyihalar tayyorlashda muhim asos bo'lib, xizmat qilishni ko'rsatadi.*

Shuningdek, interyer yechimlarining estetik sifati, shakl va materiallar tanlovi ham rassomchilik prinsiplari bilan bog'liqligi izohlanadi. Ushbu maqola interyer dizayni bo'yicha o'qiyotgan o'quvchilar va amaliyotdagi yosh dizaynerlar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: *interyer dizayn, rassomchilik asoslari, rang uyg'unligi, kompozitsiya, proporsiya, yorug'lik va soya, badiiy tafakkur, estetika, mebel va aksessuarlar;*

Abstract. *This article discusses the importance of painting in interior design, the influence of color harmony of composition, light and shadow, proportion and artistic thinking on the design process. Painting serves as an important basis for the designer to develop spatial thinking, create a visual image, artistically enrich the interior and prepare professional projects.*

It also explains that the aesthetic quality of interior solutions, the choice of form and materials are also related to the principles of painting. This article is intended for students studying interior design and young designers in practice

Keywords: *interior design, fundamentals of painting, color harmony, composition, proportion, light and shadow, artistic thinking, aesthetics, furniture and accessories;*

Аннотация. *В статье рассматривается значение живописи в дизайне интерьера, влияние цветовой гармонии композиции, светотени, пропорций и художественного мышления на процесс проектирования. Живопись служит важной основой для развития пространственного мышления дизайнера, создания визуального образа, художественного обогащения интерьера и подготовки профессиональных проектов. Также объясняется, что эстетическое качество интерьерных решений, выбор форм и материалов также связан с принципами живописи. Статья предназначена для студентов, изучающих дизайн интерьера, и начинающих дизайнеров.*

Ключевые слова: дизайн интерьера, основа живописи, цветовая гармония, композиция, пропорции, свет и тень, художественное мышление, эстетика, мебель и аксессуары;

Интерьер дизайн - bu makonlarni nafaqat qulay va funksional qilish, balki ularni estetik jihatdan ham jozibador qilish san'ati. Har bir xona yoki binoning ichki qismi rang, shakl, yorug'lik va tekstura orqali inson hissiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Shuqta nazardan, rassomchilik bilimlari dizayner uchun asosiy vosita hisoblanadi. Rassomchilik asoslarini bilgan dizayner makon yaratishda badiiy tafakkurini qo'llab, har bir elementni uyg'un va chiroyli tarzda joylashtira oladi.

Mening shaxsiy tajribam shuni ko'rsatadiki, interyer dizayn bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishda ustozlarning yordami beqiyosdir. Mening birinchi ustozim Toshpo'lat Namozov menga qalamni qanday ushlashni va chiziqlarni tortishni o'rgatdilar. Keyinchalik Ilyos Yarashev va Jamoliddin Qodirov kabi tajribali ustozlar yordamida interyer dizaynining murakkab jihatlarini, har bir stilni, ranglarni va kompozitsiya qoidalarini chuqur o'rgandim. Shu ustozlarimning sabr-toqati, yo'l-yo'riqlari va bilimlari va eng avvalo onajonimning duolari menga o'qishga grant asosida kirish va interyer dizayni bo'yicha mustahkam bilim olish imkonini berdi.

Rang va rang uyg'unligi. Ranglar interyerning kayfiyatini belgilaydi va makon hissiyotini yaratadi. Iliq ranglar qulaylik va issiqlik hissini beradi, sovuq ranglar esa makonni kengroq va toza qilib ko'rsatadi. Har bir rangni qanaqa xususiyatga ega ekanligini va qanday ta'sir ko'rsatishini, bir-biri bilan uyg'unlashtirishni o'rganish kerak. Har bir rang va uning tonalligi interyerni mukammal ko'rsatishda muhimdir.

Masalan, yashil va bej ranglarni uyg'unlashtirib, tinchlantiruvchi va iliq xona yaratish mumkin. Har bir o'rganish orqali, ranglarni nafaqat chiroyli, balki makon ruhiyatiga mos ravishda ishlata olishni bilasiz.

Kompozitsiya va proporsiya. Rassomchilikda o'rgatiladigan kompozitsiya qoidalari interyerni loyihalashda juda muhimdir. Mebel va aksessuarlarni joylashtirishda simmetriya, muvozanat va bo'sh joylarni hisobga olish lozim. Har bir chizmani batafsil tushunib, proporsiya va kompozitsiya yaratish sirlarini o'rganish lozim. Shu orqali siz har bir elementning o'z o'rnida bo'lishi va makon uyg'unligini yaratish bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lasiz.

Yorug'lik va soya. Interyerni jonli va estetik qilishda yorug'lik va soya bilan ishlash juda muhim. Tabiiy yorug'lik xonaga kenglik va chuqurlik beradi, suniy yoritish esa qulaylik yaratadi. Yorug'lik va soyaning ham qonun qoidalari mavjud. Yorug'lik va soyani amaliy tarzda o'rganish lozim. Chunki bu har bir

qadamimizda mavjud, va tezda tushunib olasiz. Yorug'lik va soya nafaqat chizmalarni jonli qiladi, balki real loyihalarda ham makon hissiyotini oshiradi.

Badiiy tafakkur va ijodiy yondashuv. Interyer dizayni bo'yicha mukammal loyiha yaratish uchun badiiy tafakkur zarur. Har bir interyer elementi; devor rangi, mebel shakli, pardalar va bezaklar dizaynning umumiy kontseptsiyasiga mos bo'lishi kerak.

Tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo'lsak, mashhur arxitektor **Marcus Vitruvius Pollio** (Vitruviy) arxitekturaning 3 asosiy prinsipini ta'kidlagan;

1. **Firmitas** (Mustahkamlik) - bino va uning ichki elementlari mustahkam bo'lishi, uzoq muddat xizmat qilishi kerak.

2. **Utilitas** (Foydalilik) - makon inson ehtiyojlariga mos bo'lishi, qulay va funksional dizayn qilinishi kerak.

3. **Venustas** (Go'zallik) - estetik jihatdan chiroyli va makon hissiyotiga mos bo'lishi kerak.

Bugungi kunda interyer dizayn yaratishda Vitruviy tamoyillari hali ham muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, har bir xonani dizayn qilishda, o'sha xonada yashaydigan insonning xohish-istaklari va ehtiyojlarini hisobga olish zarur. Avval mijoz bilan suhbatlashib, uning rang tanlovi, bezak va qulaylikka bo'lgan istaklarini o'rganib, qulay, go'zal va funksional interyer yaratish lozim.

Interyer dizaynini chuqur o'rganish va amaliyotda qo'llash ustozlarning yordamisz bo'lmaydi. Hozirgi kunda men TAQU da talaba sifatida tahsil olayman. Bu yerda ham juda ko'p tajribaga ega ustozlar bor va men izlanishdan, yangi bilimlarni o'zlashtirishdan to'xtamayman. Har bir dars, har bir loyiha menga yangi imkoniyatlar ochadi, ijodiy tafakkurimni rivojlantiradi va interyer dizayniga bo'lgan qiziqishimni yanada oshiradi. Bu jarayon menga katta zavq bag'ishlaydi, vq kelajakdagi professional faoliyat uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Interyer dizaynida rassomchilikning o'rni juda katta. Ranglar, kompozitsiya, proporsiya, yorug'lik va badiiy tafakkur makonni nafaqat qulay, balki estetik jihatdan mukammal qiladi. Har bir elementning joylashuvi, rang tanlovi va yoritilishi insonning hissiyotiga ta'sir qiladi, shu sababli dizaynning badiiy va estetik bilimlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, interyer dizaynida rassomchilikning o'rni va Vitruviy tamoyillari - mustahkamlik, foydalilik, go'zallik har bir loyihaning asosini tashkil qiladi. Ranglar, kompozitsiya, proporsiya, yorug'lik va badiiy tafakkur makonni nafaqat qulay, balki estetik jihatdan mukammal qiladi. Har bir xonani yaratishda foydalanuvchining psixalogiyasi, xohish-istaklari va ehtiyojlarini hisobga olish, interyer dizaynning eng muhim jihatlaridan

biridir. Mening shaxsiy tajribam shuni ko'rsatadiki, ustozlarning yordami, tirishqoqlik va izlanish interyer dizaynda muvaffaqiyat kalitidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Marcus Vitruvius Pollio. Arxitektura haqida o'n kitob. — Qadimiy Rim arxitektura nazariyasiga asoslangan ilmiy manba.
2. Hasanov, O. va boshqalar. Arxitektura asoslari. — Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti. Arxitektura kompozitsiyasi, proporsiya va makon qurilishi haqida tushunchalar.
3. Rasulov, B. Interyer dizayn nazariyasi. — Toshkent: Tasviriy san'at nashriyoti. Interyerning estetikasi, rang tanlovi va kompozitsiya qoidalari haqida qo'llanma.
4. O'rinboyeva, S. Rangshunoslik va ranglar psixologiyasi. — Toshkent: San'at nashriyoti. Ranglarning inson ruhiyatiga ta'siri va rang uyg'unligi haqida ma'lumotlar
5. Karimova, G. Dizayn asoslari va kompozitsiya nazariyasi. Kompozitsiya, ritm, muvozanat va makon tashkiloti borasida o'quv qo'llanma.
6. Yunusov, A. Arxitektura tarixi. — Toshkent: TDQI nashriyoti. Arxitekturaning tarixiy rivoji, uslublar va Vitruviy ta'limotiga oid boblar mavjud.